

XI ASR ADABIYOTIDA QO`LLANILGAN XALQ OG`ZAKI IJODI NAMUNALARI

Sulurxan Raximova Djumaniyozovna
O'zbekiston respublikasi IIB Xorazm
akademik litseyi "Tillarni o'rganish"
kafedrası katta o'qituvchisi
e-mail: sulurrahimova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`rta asrlarning buyuk mutafakkiri Mahmud Qoshg`ariyning asarlarida ishlatilgan iboralar tahlil qilingan bo`lib, asosoi fokus etnografik atama va iboralarning evolyutsiyasi, genezisi hamda ularning qo`llanilish usullariga qaratilgan.

Kalit so'zar: Mahmud Koshg`ariy, urf-odat, etnografik atamalar, O`rta Osiyo, O`rta Osiyo xalqlari, marosim, sovchilik, xalq tabobati, muomala madaniyati.

Аннотация. В данной статье анализируются выражения, использованные в творчестве великого средневекового мыслителя Махмуда Кашгари, основное внимание уделяется эволюции, генезису этнографических терминов и выражений, а также способам их употребления.

Ключевые слова: Махмуд Кошгари, традиция, этнографические термины, Средняя Азия, народы Средней Азии, обряд, совчилик, народная медицина, культура лечения.

Abstract. In this article, the expressions used in the works of the great medieval thinker Mahmud Kashgari are analyzed, the main focus is on the evolution, genesis of ethnographic terms and expressions, and the methods of their use.

Key words: Mahmud Koshgari, tradition, ethnographic terms, Central Asia, Central Asian peoples, ceremony, sovchilik, folk medicine, treatment culture.

Kirish (Introduction)

Badiiy asarlarning lingvistik va lingvomadaniy tahlili ko`p qirraligi, ko`p darajaliligi bilan bugungi davr mutaxassislarining diqqat markazida bo`lib turibdi. Shuning uchun ham badiiy asarlar va ularning badiiy matnlari lingvistik hamda lingvomadaniy tahlillarning haqiqiy ob`ektiga aylanib bormoqda. Badiiy matnning lingvomadaniy tahlilini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tegishli jihatlarni o`zlashtirish, bilish va anglash kerak. Bunda atamalar va tushunchalar bilan ishlashga to`g`ri keladi. Madaniyat tushunchasi, lingvomadaniyat, madaniy seme, madaniy konnotatsiya, madaniy kelib chiqish, madaniy jihatdan belgilangan birlik, shuningdek, etnomadaniyat belgisi, dunyoning milliy manzarasi, etnografiya, folklor, she'riy milliy madaniyatning ramzi, madaniy - estetik belgisi va boshqa qirralariga e`tibor qaratish lozim bo`ladi`.

So`nggi yillarda o`zbek tiliga bo`lgan e`tibor tobora kuchayib bormoqda, bu esa o`zbek tilida sohalarga oid atamalar ya`ni terminlar bilan ishlashga ehtiyojni

yuzaga keltirdi. O'z navbatida, terminning ma'nosi va mohiyati uning nomidan kelib chiqadi. Demak, "Terminus" lotincha – "chegara", "chek" so'zlaridan olingan bo'lib, "chekli", "chegaralangan" ya'ni, muayyan sohaga oid, aniqrog'i – bir ma'noli" degan ma'noni anglatadi [1, 44].

Ma'lumki, har qanday so'z tug'ilishida bir ma'noli bo'ladi, lekin kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida u ko'p ma'noli so'zga aylanib boradi. Lingvistik terminologiyaga bag'ishlangan ilmiy ishlarda har qanday termin so'zdir, lekin har qanday so'z termin bo'lolmaydi, degan fikr ilgari suriladi. Termin cheklanganligi, ya'ni bir ma'noni ifodalaganligi tufayli maxsus kontekstda hamma vaqt o'z ma'nosini saqlaydi. U emotsionallik va ekspressivlik xususiyatlariga ega emas. Ohang yordamida terminning ma'nosi o'zgarmaydi [2, 264].

O'z navbatida atamalar tuzilishi, mazmuni, kelib chiqishi va qo'llanilishiga ko'ra, iqtisodiy, siyosiy, diniy, madaniy, tarixiy, falsafiy va etnografik atamalarga bo'linadi. Atamashunoslik fani qadimdan rivojlangan bo'lib, mazkur fan asosan, qadimgi Rim va Gretsiyada taraqqiy etgan edi. Keyinchalik, aniqrog'i, ilk va rivojlangan o'rta asrlar davrida Sharq xalqlarida ham turli fanlarga oid atamalar amaliyotda keng qo'llanila boshlandi. Mazkur jarayonda Muso al Xorazmiy (aniq fanlar), Abu Ali Ibn Sino (tibbiyot), Abu Rayhon Beruniy (tabiiy va ijtimoiy fanlar) hamda Mahmud Koshg'ariy (tarixiy va etnografik)lar muhim rol o'ynadi.

Jumladan, Markaziy Osiyoda rivojlangan o'rta asrlarning yirik allomalaridan biri bo'lgan Mahmud Koshg'ariy o'z davrining buyuk arboblardan bo'lib, etnografiya, lingvistika, xususan, turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'ldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi.

XX asrning so'nggi choragidan boshlab til birliklarini antropotsentrik tadqiq tamoyillari asosida o'rganish dunyo tilshunosligining yetakchi vazifalariga aylandi. Shu qatorda o'zbek tilidagi matnlarni lingvomadaniy so'zlar yuzasidan tadqiq etish tilshunosligimizning dolzarb muommolaridan hisoblanmoqda. Dastlab, lingvomadaniy so'zlarni o'rganishni Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridagi turli so'zlarning qo'llanilishiga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Maqolamizning asosini Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" ("Turkiy so'zlar devoni") asarida keltirilgan somatik komponentli maqollarning lingvomadaniy xususiyatini aniqlashga bag'ishladik. Bu asar Sharqiy Turkistondan Kasbiy dengizi bo'ylarigacha bo'lgan ulkan hududda yashagan turkiy xalqlarning tili va madaniyatini o'zida mujassamlashtirganligi bilan nihoyatda bebahodir.

Mahmud Qoshg'ariy to'plagan maqollar juda qadimdan turkiy tillarda mavjud bo'lgan va ular turli urug' va qabila vakillarida yozib olingan. Eng qadimgi turkiy xalqlarning til xususiyatlarini o'rganishda bu materiallar kata ahamiyat kasb etadi. Maqollar hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanishida, til va meyorlarning o'sishida alohida rol o'ynaydi. Maqolamiz uchun somatizmlar (tana a'zolari) qatnashgan maqollarni "Devonu lug'atit turk" tarkibidan ajratib oldik.

Allomaning eng mashhur asari hisoblangan "Devonu lug'otit-turk"da ham bir qator atama va iboralar qo'llanilgan bo'lib, ularning aksariyati hozirgi kunda ham

ba'zi bir o'zgarishlarga uchragan holda amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda. Mazkur maqolada XI asrning buyuk ma'naviy merosi hisoblangan "Devonu lug'otit-turk"da qo'llanilgan ba'zi bir atama va iboralarga izoh berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida tabiblar qo'llagan dori va giyoh nomlariga e'tibor qaratib, turkiy xalqlap yashaydigan hududlarda o'sadigan o'simliklardan tayyorlangan dori-darmonlarning turlarini ifodalagan [3, 85].

Masalan, egit (za'farondan olingan dori), ibruk (sutdan tayyorlangan dori), urumday (zaharni kesish uchun ishlatiladigan tosh), ko'zluk, ko'zilduruk (ko'z shamollashida ishlatiladigan dori), egir (qorin og'rig'ida qo'llaniluvchi giyoh), churni (oshqozonni tozalovchi dori) va boshqalar. Mahmud Koshg'ariy o'z navbatida asarda milliy bayramlar masalasiga ham to'xtalib, unga shunday ta'rif bergan edi: "Bazram – odamlar orasida shodlik va kulgu. Gullar ochilgan joylarga bazram yer, ya'ni yoqimli yer demakdir. O'g'uzlar hayit kunini bazram deydilar, ya'ni shodlik va yoqimli kun" [4, 447].

Haqiqatdan ham bayramlar shunday ruhiy kayfiyatni vujudga keltiradiki, unda odamlar boshqa kunlardagiga nisbatan xursand va shod bo'ladilar. Shunday nuqtai nazardan qaraganda, bayram ma'lum bir vaqtdagi ideal hayot hisoblanadi [5, 178].

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida milliy urf-odatlardan biri bo'lgan sovchilik haqida qiziq ma'lumot beradi. Ma'lumki, sovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni VII–VIII asrlardagi O'rxun-Enasoy bitiklarida ham uchratish mumkin. Buyuk davlat arbobi, hukmdor Tunyuquqning bitiktoshida "sab" – "so'z" va "gap" ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, "Irq bitigi (fol kitobi)"da esa "sab" – "so'z", "sabchi" – "xabarchi", "so'z keltiruvchi" ma'nosida qo'llanilgan. O'rta asrlarning mashhur tilshunos olimi Mahmud Qoshg'ariy ushbu atamani "sovchi-kelin va kuyov o'rtasida bir-biriga xabar eltuvchi" deb izohlagan [6, 122]. "Sabchi" degan so'zning ma'nosi "xabarlar yetkazib beruvchi odam". Olimning "Devoni-lug'atit turk" kitobida "sovchi" so'ziga ta'rif berib, uni "kuyov va kelin o'rtasida xabar yetkazuvchi odam" [7, 170], "Xudoning xabar yetkazuvchi insoni" ma'nolarida ishlatgan. Demak yangi oilaning paydo bo'lishida sovchilik udumi uzoq o'tmishda shakllanganligiga amin bo'lamiz.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Xalq o'yinlari haqidagi yozma ma'lumotlarni XI asrda yashagan taniqli turkiyshunos olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari [8, 63]dan ham olish mumkin. Mazkur asarda keltirilgan ma'lumotlar xalq o'yinlarining yuzaga kelish tarixi va evolyusiyasini o'rganish imkonini beradi.

Jumladan, turkiy qavmlar orasida to'p bilan o'ynaladigan qadimiy o'yinlardan biri – "chavgon" keng rasm bo'lgan edi. "Devonu lug'otit turk"da bu o'yinga taalluqli bo'lgan quyidagi atamalar keltiriladi: "Tanguq"- chavgon o'yinida koptokni tortilgan o'tovdan o'tkazganga beriladigan ipak kiyimlik, "tasal"-

chavgon o'yini maydonida chegarani belgilab chizilgan chiziq, "tobiq"- chavgon bilan uriladigan koptok, to'p [9, 360].

Kattalarning chavgon o'yini asosida "O't bandal" nomli bolalar o'yini yuzaga kelgan. "Bandal" so'zining ma'nosi "bosh qismi cho'qmoqli yog'och" deb izohlanadi. Odatda, bunday cho'qmoqli tayoq bilan chavgon o'yinida koptok urilgan. Bolalar esa bunday cho'qmoqli tayoqlarning uchini yondirib, kechki paytda bir-birlariga tayoqlar o'q'talib o'ynaganlar, shu tufayli bir qadar xavfli bo'lgan, o'ta ehtiyotkorlikni talab qilgan bu o'yin "O't bandal" deb atalgan. O'yinda faqat o'g'il bolalar ishtirok etib, ularning qo'rqmas, jasur bo'lib ulg'ayishlari nazarda tutilgan. Qadimgi ajdodlarimiz bosqinchi qabilalar hujumini qaytarib, o'zlarini himoya qilishlari uchun jangu jadal sirlarini puxta egallashlari talab qilinardi. Shuning uchun qilichbozlik, nayzabozlik, o'q otish-tirandozlik sirlarini o'zlashtirish maqsadida turli tuman jangovar o'yinlarni ham o'ylab topganlar [10, 45].

Tirandozlik o'yini avvaldan hozirlab qo'yilgan maxsus joyda o'tkazilgan. Otish mashqlari uchun mo'ljallangan joy qadimgi turkiylar tilida "amachlik yer" deb atalgan. Merganlikka qiziqadigan yigitlar o'q-yoylarini olib o'sha maydonga yetib borishadi. O'q otiladigan joydan to nishongacha bo'lgan masofa "oqtam", ya'ni "bir o'q otarli masofadagi yer", nishon esa qadimgi turkiylar tilida "amach" deb atalgan [11, 86]. Nazarimizda, kamondan o'q otish musobaqasi, dastavval, yoshlarning jangovarlik xususiyatlarini qaror toptirish maqsadida o'tkazilgan. Keyinchalik ana shu muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan harbiy o'yin mashqidan "oltin qoboq" tipidagi tomoshaviy o'yinlar kelib chiqqan.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan oila, qarindoshlik va jamoaviy munosabatlardagi muloqot madaniyatida qo'llanilgan murojaat shakllari berilgan[12, 12].

Asarda kelishi	Asarda joylashgan o'rni	Ma'nosi
Aba	1 jild, 123 bet	ota yoki ona
Ana	1 jild, 119 bet,	ona,
Acha	1 jild, 114bet	katta opa,
Ata	1 jild, 114 bet	ota
Egetlik	1 jild, 267 bet	yanga, to'y kechasi kelinga hamroh ayol
Echa	1 jild, 114 bet	katta opa,
Eka	1 jild, 116 bet	katta opa
Og'a	1 jild, 116 bet,	tajribali, aqlli ko'p yashagan odam,
Boldiz	1 jild, 426 bet.	xotinning singlisi
Baldir ug'ul	1 jild, 425 bet,	o'gay o'g'il
Baldir qiz	1 jild, 425 bet	o'gay qiz
Dada	3 jild, 239 bet.	dada, ota
Ichi	1 jild, 114 bet	yoshi katta aka
Eke	1 jild, 116 bet	Opa
Dede	3 jild, 239 bet.	dada, ota
Jurj –	3 jild, 13 bet	xotining o'g'il ukasi
Kis –	1 jild, 318 bet	Xotun
Namija –	1 jild, 417 bet.	ooja, qaynsinglisining eri

Tafaj –	3 jild,. 256 bet	amaki
Ini	1 jild, 418 bet.	kichik birodar, uka
Uma	1 jild, 118 bet	ona (tubutlar tilida)
Uma	1 jild, 118 bet	qo'noq, mehmon.
Uri –	1 jild, 115 bet	o'g'il bola
Xiz –	3 jild, 238 bet	qiz bola

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib shuni qayd etish mumkinki, zamonaviy o'zbek muloqot madaniyatida qo'llanilayotgan nomlar o'zining etimologiyasiga ko'ra qadimgi turkiylardan vorisiylik asosida ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelgan.

Buxoro vohasi o'zbeklarilarida kurashchi-polvonlarning g'olib chiqqanlariga nisbatan “yiqitmoq” so'zi o'rnida ba'zida “uchirmoq” atamasini qo'llashlari kuzatiladi. Masalan, Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'otit turk” asarida ushbu atama “uchirdi” shaklida kelib, aynan “yiqitmoq” ma'nosida kelgan. Voha o'zbeklari muloqot jarayonida erta tongdan kayfiyati bo'lmagan suhbatdoshga nisbatan “Ertalabdan bulutku”, “Ertalabki bulutday” kabi iboralar qo'llaniladi. Buni “Devonu lug'atit turk” asari orqali shunday izohlash mumkinki, qadimgi turkiylarga xos maqollarning biri “Tongda bulut o'rtansa, uyga yov kirganday bo'lur” qabilida keltiriladi.

Bu bilan tongdagi quyoshni to'sgan bulut xush ko'rilmaganligi va mazkur holat yaxshilik alomati emasligiga ishora qilingan. Bugungi kunda suhbatdoshga nisbatan bunday qiyoslash qadimgi turkiylarga xos qarashlar bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Shuningdek, ko'plab ota-ona va yaqin qarindoshlar yaxshi munosabatga undovchi maqollar ham keltiriladi. Jumladan, “Bar baqir, juq oltun (Bor mis (qadrsiz) yo'q oltin)”, ya'ni qo'lda bor narsa misdek qadrsiz, qo'lda bo'lmagan narsa oltindek qadrlil. Ushbu maqol yaqinlar o'rtasida xo'rlanib yurgan, keyinchalik yo'qligida qadri bilinishi ma'nosida qo'llanilgan

Mazkur asarda muloqot madaniyatida xushmuomali va tavoze'li insonlarga nisbatan “Qutqi er” iborasi qo'llanganligini ko'rish mumkin. Ushbu manbada keltirilgan muloqot madaniyatiga oid ma'lumotlar dala tadqiqotlari materiallari bilan qiyosiy taqqoslanib o'rganilganda, so'zlashuv etiketlariga doir ko'plab manbaviy asoslar aniqlandi va ulardan dissertatsiyani yozish jarayonida keng foydalanildi.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, “Devonu lug'otit-turk”da qo'llanilgan atama va iboralarning aksariyati hozirgi kunda ham ba'zi bir o'zgarishlarga uchragan holda amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu atama va iboralar o'z navbatida milliy tilimizning sofliqini ta'minlashda muhim roly o'ynashi bilan ahamiyatlidir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: O'zME, 2005. – B. 144.

2. Ashirova M. F. Atamalar haqida umumiy ma'lumot // Central Asian research journal for interdisciplinary studies (carjis) google scholar issn:2181-2454 www.carjis.org volume 1 | issue 3 | 2021. – P. 264.
3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T. 1. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 85.
4. Bakirov B.U. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asaridagi maqollar xususida // DLT va TXMHJSTO' Samarqand, 2002.
5. Mazaev A. I. Prazdnik kak sotsialno–xudojestvennoe yavlenie. – M.: Nauka, 1978. – S. 178.
6. Ashirov A. A. O'zbek xalqining qadimiy diniy e'tiqod va marosimlari.... – B. 122.
7. Khalmuratov B. R. ANALYSIS OF ETHNOECOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – S. 2081-2087.
8. Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'atit turk.... – B. 170.
9. Yo'ldoshev S. V. Farg'ona vodiysi aholisining an'anaviy xalq o'yinlari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 45.
10. Narziev N. N. O'zbeklarning an'anaviy muloqot madaniyati (tarixiy-etnologik tadqiqot). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2021. – B. 12.
11. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.